



# “Humans tug’ilgan kuni sharafiga Keshbek” Humans tanlovini o’tkazish Qoidalari

2022 y. 16-iyun

“Humans tug’ilgan kuni sharafiga Keshbek” Humans tanlovini o’tkazish Qoidalari (keyin «Qoidalar» va «Tanlov» muvofiq tarzda)

## 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Tanlov tashkilotchisi: “Humans” mas’uliyati cheklangan Jamiyat, manzil: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mahtumquli ko‘chasi. 2B-uy, INN 306624856 (Tashkilotchi)
- 1.2. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so‘zlar atamalardir. Atamalarning ta’rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida va www.humans.uz saytida, shuningdek, tariflarning tavsiflarida keltirilgan.
- 1.3. Tanlov yangidan-yangi mijozlarni jalb qilish, Tashkilotchi xizmatlari savdolarini oshirishga yo’naltirilgan.
- 1.4. Tanlovda Tashkilotchining instagram @humans.uz va @humans.uz.marketplace akkauntlariga Tanlov o’tkazilish davirining oxirigacha obuna bo‘lgan va mazkur Qoidalarning 2.1.-bandlarida qayd etilgan amallarni bajargan jismoniy shaxslar (keyinchalik – “Ishtirokchi” deb yuritiladi) qatnashishi mumkin.
- 1.5. Ishtirokchining Tanlovda ishtirokining o‘zi Ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishib chiqqani va uning joriy Qoidalarga muvofiq Tanlovda qatnashuviga rozi ekanini bildiradi.
- 1.6. Tanlov o’tkazilish davri – 16.06.2022 y.dan 23.06.2022 y.gacha.
- 1.7. Tanlov o’tkazilish hududi – O‘zbekiston Respublikasi.
- 1.8. Tashkilotchi joriy Qoidalarga muvofiq G‘olib deb topilgan Ishtirokchilarga (keyinchalik “Sovrinlar” deb yuritiladi) mazkur Qoidalarning 5-bo‘limida ko‘rsatilgan sovrinlarni (mukofotlar) topshiradi.

## 2. Tanlovda ishtirok etish tartibi va shartlari

- 2.1. Tanlov o’tkazish davrida Ishtirokchi quyidagi harakatlar yig‘indisini bajarishi shart:
  - 2.1.1. Ishtirokchi @humans.uz b instagram akkauntida Tanlov to‘g‘risidagi matnga layk bosishi lozim;
  - 2.1.2. @humans.uz va @humans.uz.marketplace sahifasi ko‘rsatilgan storizda Tashkilotchining Tanlov postiga repostlashi lozim.
  - 2.1.3. Izoh va sharhlarda ikki do‘stini qayd etishi lozim.
  - 2.1.4. @humans.uz va @humans.uz.marketplace sahifalariga yozilgan (obuna) bo‘lishi kerak.
- 2.2. Qoidalarning 2.1.-bandida ko‘rsatilgan amallarni bajarish shartlari:
  - tijorat akkauntlari va tanlovlar uchun tashkil qilingan akkauntlar tanlovda ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi;
  - sharhlarda tijorat akkauntlari va mediaga tegishli shaxslar profillarini qayd etish mumkin emas;
  - Ishtirokchi profili Tanlov davri va natijalar ko‘rib chiqilayotganda ochiq bo‘lishi kerak.
- 2.3. Mavjud Qoidalarning 2.1.1 – 2.1.3. –bandlarida ko‘rsatilgan amallar to‘plami Ishtirokchining mazkur Qoidalarning 5-bo‘limida ko‘rsatilgan Sovrinlar uchun da‘vogar bo‘ladigan Tanlovda ishtirok etsih uchun arizasi sifatida e’tirof etiladi.
- 2.4. Tashkilotchi Ishtirokchining insofga zid xatti-harakatlari, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini manipulyatsiya qilish va hokazolar fosh etilgudek bo‘lsa, uni Tanlovda ishtirok etishdan chetlashtirish huquqiga ega.

## 3. Tanlov o’tkazilish muddatlari

- 3.1. Tanlov 2022-yilning 16.06.dan 23.06. gacha o’tkaziladi.
- 3.2. Tanlov G‘oliblari 2022-yilning 30.06.gacha muddatda aniqlanadi.
- 3.3. G‘oliblarga Sovrinlarni tushirib berish 2022-yilning 15.07.dan kechikmasdan amalga oshiriladi.

## 4. Tanlov g‘oliblarini aniqlash

- 4.1. G‘oliblar mazkur Qoidalarning 3.2.-bandi tomonidan belgilangan kunda aniqlanadi.
- 4.2. G‘oliblar deb mazkur Qoidalarning 2.1.1 -2.1.3.- bandida belgilangan tasodifiy tanlab olish natijalari bo‘yicha aniqlangan va mezonlarga javob beradigan ishtirokchilar tan olinadi. Tashkilotchi tanlovning barcha ishtirokchilarini exel jadvalidagi ro‘yxatdan kiritib, satr raqamini tasodifiy tanlash bilan 100 (yuz) g‘olibni tanlaydi.
- 4.3. Ushbu qoidalarning 3.2-bandda ko‘rsatilgan muddatlarda, Tashkilotchi postda xabar beradi humans.uz instagramdagi @humans.uz akkauntida posti orqali g‘oliblarning Tanlovda muvaffaqiyatlari haqida xabardor qiladi.
- 4.4. Sovrinlarni taqdim etish tanlovda g‘alabani bildirish vaqtida amalga oshiriladi. Agar g‘olib tashkilotchi bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzmagan bo‘lsa, unga shartnoma tuzish uchun 15.07.2022 yilgacha, shuningdek HUMANS.uz sovrinni olishga ilovada ro‘yxatdan o‘tish uchun muddat beriladi.

## 5. Tanlovning Sovrin jamg‘armasi

- 5.1. Sovrin sifatida G‘olibga quyidagi miqdorda Bonus qo‘shib beriladi:
  - 2 ta sovrin 2 222 222 UZS‘dan
  - 22 ta sovrin 222 222 UZS‘dan
- 5.2. G‘olib sovrinni o‘rniga sovrin pul ekvivalentini to‘lab berishlarini talab qilishga haqli emas. Sovrin qiymatining pul ekvivalentini to‘lash, Tashkilotchi tomonidan sovrinni almashtirish amalga oshirilmaydi.
- 5.3. Sovrinni olish huquqi g‘olib tomonidan boshqa shaxsga topshirilishi mumkin emas.
- 5.4. Sovrin Qoidalarning 3.3-bandida ko‘rsatilgan muddatlarda Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalariga muvofiq tarzda ochilgan Ishtirokchining Keshbek hisobiga tushirib beriladi.

## 6. Yakuniy qoidalar

- 6.1. Tanlov natijalari yakuniy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilmaydi.
- 6.2. Tanlovga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va unda ishtirok etishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarni buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 6.3. Mazkur Qoidalar Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchilarni humans.uz saytida xabardor qilgan holda o‘zgartirilishi yoki Tanlov bekor qilinishi mumkin. Qoidalar tegishli yangiliklar Tashkilotchining Saytida e‘lon qilingan kundan boshlab bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan deb hisoblanadi.